

Gulchehra Mufti-zade

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası
katta o'qituvchisi
E-mail: gulchehra19820929@gmail.com*

JAMIYAT MA'NAVIY ONGINING SHAKLLANISHIDA RAMZLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada jamiyatda ma'naviy ong shakllanishida ramzlarning o'rni va ahamiyati tahlil etilgan. Ramzlar inson tafakkuri va hissiyotini bog'lovchi vosita sifatida ma'naviy qadriyatlarni ifoda etishi hamda ular orqali jamiyatning ma'naviy qiyofasi shakllanishi yoritilgan. Milliy, diniy, madaniy va ommaviy ramzlarning jamiyat ongiga ta'siri misollar orqali ko'rsatilgan. Shuningdek, globallashuv davrida ramzlar ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida talqin etilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy ong, ramz, ma'naviyat, jamiyat, qadriyat, madaniyat, falsafa, milliy ramzlar, globallashuv.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF SYMBOLS IN THE FORMATION OF SOCIETY'S SPIRITUAL CONSCIOUSNESS

Abstract. The article analyzes the role and importance of symbols in the formation of spiritual consciousness in society. The expression of spiritual values as a means of connecting human thinking and feelings and the formation of the spiritual image of society through them are highlighted. The influence of national, religious, cultural and mass symbols on the consciousness of society is shown through examples. Also, symbols are interpreted as an important factor in ensuring spiritual stability in the era of globalization.

Keywords: spiritual consciousness, symbol, spirituality, society, values, culture, philosophy, national symbols, globalization.

Har bir jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti uning ongiy darajasi, qadriyatlari va ramziy tizimlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'naviy ong – inson va jamiyat tafakkuridagi chuqur ma'noli, axloqiy, madaniy va estetik tushunchalar majmuidir.

U jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilaydigan muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bu jarayonda ramzlar (simvollar) alohida ahamiyat kasb etadi.

Ramz – ma'lum ma'nolarni umumlashtiruvchi, chuqur ma'naviy-axloqiy mazmunga ega bo'lgan belgi yoki obrazdir. Ramzlar inson ongi va hissiyoti o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. Shu sababli, jamiyatda ma'naviy ong shakllanish jarayonini ramzsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ma'naviy ong jamiyatning ma'naviy madaniyati asosidir. U insonning axloqiy qadriyatlarga munosabatini, vatanparvarlik hissinini, ma'rifatga intilishini belgilaydi. Insonning dunyoqarashi, ishonchi va e'tiqodi aynan ma'naviy ong orqali shakllanadi.

Ma'naviy ong jamiyatdagi tarixiy tajriba, urf-odat, an'ana va milliy qadriyatlar asosida rivojlanadi. Uning shakllanishida ta'lim, oila, din, san'at, adabiyot va ommaviy axborot vositalari muhim o'rin tutadi. Biroq ushbu sohalarining barchasida umumiy bir ifoda – ramziy ma'nolar tizimi mavjud bo'lib, ular inson ongiga ta'sir etishning samarali vositasi sanaladi.

Ramz – (arab. – ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmunni ifodalaydi. Masalan, sher – mardlik, tulki – makkorlik, bo'ri – ochko'zlik va boshqalar. Adabiyot tarixida asrlar davomida ishlatilib kelinayotgan ramziy obrazlar tizimi ham mavjud; gul – go'zallik, ma'shuqa; bulbul – oshiq; sariq rang – mahzunlik, qora rang – motam ramzi va boshqalar [1, 247-b.].

Falsafa va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ramzlar inson tafakkurining ilk bosqichlaridayoq paydo bo'lgan. Ilk odamlar tabiat hodisalarini, qudratni va

hayot manbalarini ramziy belgilar orqali anglashgan. Bu belgilar keyinchalik mifologiya, din, san'at va xalq ijodiyotida chuqur ildiz otgan.

Har bir jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti uning ongiy darajasi, qadriyatlari va ramziy tizimlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'naviy ong – inson va jamiyat tafakkuridagi chuqur ma'noli, axloqiy, madaniy va estetik tushunchalar majmuidir. U jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilaydigan muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bu jarayonda ramzlar (simvollar) alohida ahamiyat kasb etadi.

Ramz – ma'lum ma'nolarni umumlashtiruvchi, chuqur ma'naviy-axloqiy mazmunga ega bo'lgan belgi yoki obrazdir. Ramzlar inson ongi va hissiyoti o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. Shu sababli, jamiyatda ma'naviy ong shakllanish jarayonini ramzsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ma'naviy ong jamiyatning ma'naviy madaniyati asosidir. U insonning axloqiy qadriyatlarga munosabatini, vatanparvarlik hissin, ma'rifatga intilishini belgilaydi. Insonning dunyoqarashi, ishonchi va e'tiqodi aynan ma'naviy ong orqali shakllanadi.

Ma'naviy ong jamiyatdagi tarixiy tajriba, urf-odat, an'ana va milliy qadriyatlar asosida rivojlanadi. Uning shakllanishida ta'lim, oila, din, san'at, adabiyot va ommaviy axborot vositalari muhim o'rin tutadi. Biroq ushbu sohalarning barchasida umumiy bir ifoda – ramziy ma'nolar tizimi mavjud bo'lib, ular inson ongiga ta'sir etishning samarali vositasi sanaladi.

Ramz – (arab. – ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmunni ifodalaydi. Masalan, sher – mardlik, tulki – makkorlik, bo'ri – ochko'zlik va boshqalar. Adabiyot tarixida asrlar davomida ishlatilib kelinayotgan ramziy obrazlar tizimi ham mavjud;

gul – go'zallik, ma'shuqa; bulbul – oshiq; sariq rang – mahzunlik, qora rang – motam ramzi va boshqalar [1, 247-b.].

Falsafa va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ramzlar inson tafakkurining ilk bosqichlaridayoq paydo bo'lgan. Ilk odamlar tabiat hodisalarini, qudratni va hayot manbalarini ramziy belgilar orqali anglashgan. Bu belgilar keyinchalik mifologiya, din, san'at va xalq ijodiyotida chuqur ildiz otgan.

axborot va media vositalarida tarbiyaviy roli sifatida televideniye, internet va ijtimoiy tarmoqlarda ma'naviy qadriyatlarni aks ettiruvchi ramzlarni yaratish va targ'ib qilish;

ma'naviy ong shakllanishida jamiyatning ramzlardan foydalanishi – nafaqat estetik yoki madaniy masala, balki ma'naviy sog'lom muhit yaratishning samarali vositasi. Ramzlar jamiyatning ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi, yosh avlodni axloqiy qadriyatlar bilan tarbiyalaydi va birlashtiruvchi kuch sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda ma'naviy ong shakllanishi ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning markazida ramziy ma'nolar tizimi turadi. Ramzlar inson qalbiga ta'sir etib, uni ma'naviyat sari yetaklaydi; milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tashuvchisi sifatida xizmat qiladi.

Shu boisdan, jamiyatning ma'naviy taraqqiyotini ta'minlash uchun ramzlar madaniyatini rivojlantirish, ular orqali yosh avlod ongiga ezgu g'oyalarni singdirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ramz – bu nafaqat belgidir, balki ma'naviy ongning jonli ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-tom. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 247-b.*
2. *Ochilov O. VII-X asrlar tang davri she'riyatida ramzlar semantikasi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2018. – 20-b.*
3. *Лосев А.. Логика символа. Философия, Мифология, Культура. – Москва: 1991. – с-258.*